

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**EHSONOV JASURBEK RUSTAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA LOGISTIKA SOHASIDA RAQAMLI  
TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINI  
CHUQURLASHTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Ehsonov Jasurbek Rustamovich**

О‘zbekistonda logistika sohasida raqamli transformatsiyalashuv  
jarayonlarini chuqurlashtirish yo‘llari..... 3

**Эхсонов Джасурбек Рустамович**

Пути углубления процессов цифровой трансформации в сфере  
логистики в Узбекистане ..... 29

**Ehsonov Jasurbek Rustamovich**

Ways to deepen digital transformation processes in the field of logistics in  
Uzbekistan ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**EHSONOV JASURBEK RUSTAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA LOGISTIKA SOHASIDA RAQAMLI  
TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINI  
CHUQURLASHTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Iqt2372 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (http://gsbe.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xoshimov Elmurod Abdusattorovich  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Gulyamov Saidaxror Saidaxmadovich  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), akademik

**Qo'chqorov Toxir Safarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning

2025-yil « 7 » XI soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@gsbe.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida tanishish mumkin (UDK: 339.5.665:004 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks (99871) 239-03-03; e-mail: info@gsbe.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil «22» 10 dagi № 10 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**D.X. Suyunov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**T.U. Qodirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**A.T. Kenjabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahonda transport logistikasining nufuzi va navfliligi savdo aylanmasi hamda sohadagi raqamli transformatsiyalashuv jarayonlariga jahon miqyosida ehtiyoj sezilayotganligi globallashtirish davrida keskin logistika xizmatlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashda zarurligini anglatmoqda. Iqtisodiy tiklanishni osonlashtirishga xizmat qiladigan raqamlashtirish logistika barqarorligi ta'minlanishida dolzarb masalalar va oldinda turgan muammolarga yechim bo'ladi. Bundan tashqari raqamlashtirish uchun har bir mamlakat o'zining uzoq muddatli istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda turli yondashuvlarni ishga solmoqda. Zero, transport sohasini iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolar, jumladan, yagona transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga kompleks yondashish, multimodal texnologiyalarni qo'llash asosida tranzit salohiyatini oshirish va raqamli salohiyatni yuksaltirish masalasi o'z dolzarbligini namoyon etmoqda.

Xalqaro amaliyotda mamlakatlararo logistika samaradorligi indikatorlari Jahon banki tomonidan tartibga solinadi. Unga ko'ra, "jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi ulushi miqdori 4.3 trln. AQSh dollari (6.9%) hajmida baholanib, yiliga 110 mlrd tonna yuk va 1 trln nafardan ortiq yo'lovchi tashilgan bo'lsa, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni esa, 100 mln kishini tashkil etmoqda"<sup>1</sup>. Logistika samaradorligi indeksi negizida mijozga yo'naltirilgan yondashuv va xizmat sifatini yaxshilashga qaratilgan raqamli xizmatlar kiradi. Shunga qaramay, logistik korxonalar faoliyatini raqamlashtirish va samaradorligini oshirish o'rtasidagi bog'liqlikni modellashtirish, markazni raqamlashtirishdagi iqtisodiy munosabatlarini tizimli rivojlantirish masalalari, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda logistika tizimi dastlab barqaror va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tizimning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash manfaati uning elementlari manfaatlaridan ustunligi logistika konsepsiyasini belgilab bergan bo'lsa, hozirda iste'molchi talablarini ko'proq qanoatlantirish maqsadlarida xomashyo, yarimfabrikatlar, tayyor mahsulotlar va tegishli tovarlarni tashish va saqlashda samarali operatsiyalarni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonlarini qamrab olmoqda. Yangi O'zbekistonning "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish"<sup>2</sup>. Shuningdek, tarmoqlararo raqamlashtirish dolzarb va muhimligini logistika sohasi iqtisodiyotga zamonaviy xizmat turlariga ehtiyoj mavjudligini qayta ko'rsatmoqda. Logistik korxonalar multimodal va intellektual tizimlar, shuningdek, biznes jarayonlarni jadallashtirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchi mavqega ega bo'lgan holda, mamlakat va butun tizimni raqamlashtirish dvigateli hisoblanadi.

O'zbekiston raqamli transformatsiya jarayonlariga sohalar kesimida keskin burilish, ya'ni strategik o'zgarishlarning an'anaviy shakllaridan farq qiluvchi mexanizmlarni joriy qilmoqda. Zero, raqamli texnologiyalar maqsadli o'zgarishlar sur'atini tezlashtiradi, bu esa sezilarli barqarorlik va takomillashtirishning muhim tadqiqot yo'nalishidir. Transport logistika tizimini raqamlashtirish jarayonining

<sup>1</sup> Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari - World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

iqtisodiy mazmuni va nazariy asoslarini takomillashtirish, tashish jarayonlarini raqamlashtirish sohasidagi qoida va reglament talablarini o‘z ichiga olgan “Kerakli joyda – kerakli vaqtda” tamoyili asosida raqobatbardoshlikka erishishning yangi usullarini tadbir etish orqali logistik kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirishning uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirishda mazkur muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi doirasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvar kungi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-28-son, 2023-yil 14-iyundagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-94-son, 2025-yil 30-yanvardagi “«O‘zbekiston - 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son, 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son, 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-132-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 885-sonli qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatlarning xalqaro transport logistika koridorida tizimning raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirish ta‘sirini tadqiq qilishning ilmiy, nazariy, metodologik hamda amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar, jumladan: H. Gleissner, Donald J. Bowersox, E.Ozceylan, I.Iyigün, A.Ustundag, A.Bal, Sule I.Satoglu, T.Paksoy, M.Cichosz, E.Sweeney, Anna L.Junge, M.Sullivan, İ.İyigün, Von Der Gracht, I.Afanasenko va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil etilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Gleissner, H., Femerling, J. C., Gleissner, H., & Femerling, J. C. (2013). IT in Logistics (pp. 189-223). Springer International Publishing.; Bowersox, D. J., Closs, D. J., & Stank, T. P. (1999). 21st century logistics: making supply chain integration a reality.; Paksoy, T., Bektaş, T., & Özceylan, E. (2011). Operational and environmental performance measures in a multi-product closed-loop supply chain. *Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review*, 47(4), 532-546.; Denizler, C., Iyigun, M. F., & Owen, A. L. (2000). *Finance and Macroeconomic Volatility* (Vol. 670). World Bank Publications.; Ustundag, A., & Cevikcan, E. (2017). *Industry 4.0: managing the digital transformation*. Springer.; Bal, A., & Satoglu, S. I. (2018). A goal programming model for sustainable reverse logistics operations planning and an application. *Journal of cleaner production*, 201, 1081-1091.; Bal, A., & Satoglu, S. I. (2018). A goal programming model for sustainable reverse logistics operations planning and an application. *Journal of cleaner production*, 201, 1081-1091.; Paksoy, T., Kochan, C. G., & Ali, S. S. (Eds.). (2020). *Logistics 4.0: Digital transformation of supply chain management*. CRC Press.; Cichosz, M., Wallenburg, C. M., & Knemeyer, A. M. (2020). Digital transformation at logistics service providers: barriers, success factors and leading practices. *The International Journal of Logistics Management*, 31(2), 209-238.; Sweeney, E., & Waters, D. (2021). *Global logistics: new directions in supply chain management*. Kogan Page Publishers.; Bowersox, D. J., & Closs, D. J. (1974). *Logistical management*. New York: Macmillan.; Junge, A. L.,

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.Pulatxo'jaeva, E.A.Xoshimov, N.Nazirov, A.Xomidov, S.Raxmatov, M.Kalonov, T.A.Kuchqorov, F.O.Rajabov, G'.A.Samatov, T.U.Qodirov, M.A.Raimjanova, A.T.Kenjabaev va boshqalarning ilmiy ishlarida mamlakatlatning transport logistika tizimini takomillashtirish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqib jadallashtirish hamda uni xalqaro transport indekslardagi ko'rsatkichlar ta'sirining ayrim nazariy va amaliy jihatlari bilan bog'liq masalalarni tadqiq etganlar<sup>4</sup>. Ammo mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot sifatida mamlakatlarning xalqaro transport logistika sohasidagi raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarida tranzit salohiyati ko'lamini oshirish ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha mustaqil dissertatsion tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiyaning tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** transport va logistika tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va chuqurlashtirish orqali tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

logistik kompaniyalarni raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish hususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatini va vositalarini ishlab chiqish;

logistikani raqamlashtirish samaradorligini baholash uslublarini qiyosiy tahlil qilish;

logistika kompaniyalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirish borasidagi xorij tajribasini tahlil qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish;

O'zbekiston Respublikasida transport-logistika sohasini raqamlashtirishning

---

Verhoeven, P., Reipert, J., & Mansfeld, M. (2019). Pathway of digital transformation in logistics: best practice concepts and future developments (Vol. 8). Universitätsverlag der TU Berlin.; Sullivan, M., & Kern, J. (Eds.). (2021). The digital transformation of logistics: Demystifying impacts of the Fourth Industrial Revolution. John Wiley & Sons.; İyigün, İ., & Görçün, Ö. F. (Eds.). (2022). Logistics 4.0 and future of supply chains. Springer.; Von Der Gracht, H. A., Vennemann, C. R., & Darkow, I. L. (2010). Corporate foresight and innovation management: A portfolio-approach in evaluating organizational development. *Futures*, 42(4), 380-393.; von der Gracht, H. A. (2008). The future of logistics: Scenarios for 2025. Springer Science & Business Media.; Афанасенко, И. Д., & Борисова, В. В. (2018). Цифровая логистика: учебник для вузов. "Издательский дом" "Питер"."

<sup>4</sup> Pulatkhujayeva, D. (2020). XALQARO LOGISTIKA. Архив научных исследований, (14); Ekhsanov, J., & Khoshimov, E. (2023). Establishment of transport logistics hub. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 34-46.; Nodirbek, N., & Valijon o'g'li, Y. F. (2023). Logistika axborot tizimlari nuqtai nazaridan mijozlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 216-218.; Xomidov, A., & Ismoilov, S. (2023). LOGISTIKA SAMARADORLIGI INDEKSINING O'Z VAQTIDA SUBINDEKSI TAHLILI. Science and innovation in the education system, 2(1), 229-236.; Kalonov, M., & Allaberdiev, M. (2023). CHALLENGES AND OPPORTUNITIES FOR INVESTMENT IN THE LOGISTICS SECTOR OF UZBEKISTAN. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., 131-133.; Kuchkorov, T. A., Hamzayev, J. F., & Ochilov, T. D. (2021). Intellektual transport tizimi ilovalari uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Вестник КГУ им. Бердаха. №, 2, 107.; Rajabov, F. (2023). TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI BOSHQARISHNING USUL VA YONDASHUVLARINI TAHLIL QILISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 144-147.; Gaffor, S., Dilmurod, A., Zokirkhon, Y., & Isomiddin, A. (2023). IMPORTANCE OF LOGISTICS ACTIVITIES IN IMPROVING THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Universum: технические науки*, (5-7 (110)), 14-18.; Кодиров, Т. У., Юсуфхонов, З. Ю. У., & Ахмедов, Д. Т. У. (2021). Анализ факторов, влияющих на рейтинг индекса эффективности логистики Республики Узбекистан. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 245-252.

amaldagi holatini tahlil qilish;

logistik korxonalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni boshqarishni takomillashtirishning samaradorligini baholash;

transport-logistika tizimini raqamlashtirish samaradorligini oshirish yo'llari va istiqbolli prognoz modellarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tizimidagi korxonalar, xususan Qo'qon logistika markazi tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** raqamli iqtisodiyot sharoitida transport-logistik kompaniyalarni raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni olib borish jarayonida adabiyotlar tahlili, statistik tahlil, istiqbolli tahlil, ekspert baholash, bashoratlash, matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, raqamli logistika samaradorligi tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqamli platformalardan foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan transport logistika xizmatlari sifati, tezligi, xavfsizligi hamda innovatsion yechimlarni tatbiq etishda tizimni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlardan samarali foydalanish ko'rsatkichi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

Qo'qon logistika markazida raqamli faoliyatni samarali yuritish imkoniyatini yaratish hamda tranzit salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi yangi raqamli platformani joriy etish orqali samaradorligini oshirish asoslangan;

“aqlli logistika” segmenti va elementlari orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarini raqamli provayderlarga asoslangan holda samaradorligini oshirish taklifi ilmiy jihatdan asoslangan;

O'zbekistonda transport logistika xizmatlari rivojlanishining dinamik va optimistik ssenariylari bo'yicha 2030-yilga qadar “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ barqarorligini ta'minlashning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

transport logistikasining raqamli transformatsiyasi, shuningdek, bajariladigan asosiy funksiyalariga mos qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar tasnifi taklif qilingan;

tadbirkorlik shakllariga logistika xizmatlari ko'rsatishning biznes modellarining elementlari ishlab chiqilgan;

“ta'minot-xizmat ko'rsatish” zanjirida logistika xizmati tizimi va elementlarini raqamlashtirish jarayoni soslab berilgan;

logistika sohasini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi asosida mamlakatimizda foydalanishi mumkin bo'lgan jihatlari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

logistika xizmatlarini raqamli transformatsiyalashda zamonaviy texnologiyalar asosida samaradorligini baholashda va natijadorlik ko'rsatkichlari taklif etilgan;

transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish, iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlashda raqamli iqtisodiyot modellari tadqiq etish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

logistik markazlar boshqaruvining raqamli transformatsiyasi uchun raqamli infratuzilmani yaratish orqali samaradorlik indeksiga ta'sir omillarini baholash modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahliliga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda rasmiy va statistik ma'lumotlar tahlillariga asoslanganligi bilan belgilandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan global transport indeksda mamlakat ishtirokini yaxshilash orqali raqamli logistika tizimini jozibadorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatning global transport indekslarda ishtirokini yaxshilash va tranzit oqimining jozibadorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalaniladi, shuningdek, O'zbekiston-2030 strategiyasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonning transport-logistika sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari darajasi ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

aqlli shartnomalar (smart contracts) segmenti va elementlari jozibadorligi yuqoriligini ta'minlash orqali mijoz va tovar-mol yetkazib beruvchi o'rtasidagi an'anaviy shartnomalar tuzish jarayonidagi tranzaksion xarajatlarni qisqartirish taklifi inobatga olingan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 04/53-3-3261-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023 yil davomida 95,8 million so'mlik miqdorda moliyaviy resurslar iqtisod qilish amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirildi;

transport va logistika xizmatlar bozorini rivojlantirish, iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlashda raqamli iqtisodiyot modellari tadqiq etish yordamida elektron xujjatlar ulushini kengaytirish taklifi inobatga olingan. (Transport vazirligining 2025 yil 4 martdagi 4/2558-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif natijasida logistika xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 15 mingga yetish orqali elektron xujjatlar ulushi 96 foizga yetgan;

innovatsion logistika tamoyili – “eshikdan-eshikgacha” tamoyilini bitta buyurtma prinsipi asosida yuk aylanish hisobiga sodiqlik ko'rsatkichi darajasidan kelib chiqib sun'iy intellekt (AI) tomonidan narx belgilanishi amaliyotini joriy qilish taklifi inobatga olingan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 04/53-3-3261-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif Qo'qon logistika markazining raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari blokcheyn texnologiyalari yordamida muvaffaqiyatli o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasida o'z aksini topgan;

sanoat 4.0 doktrinasiga asosan logistik kompaniyalar tomonidan raqamli xizmat va marketing takliflarini ta'minot zanjiri orqali yagona tarif siyositaga asoslangan

muvoqilashirilgan qiymatda yuk egasiga yetkazish taklifi inobatga olingan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 04/53-3-3261-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tizimidagi korxonalar uchun muhim bo'lgan xalqaro iqtisodiy indekslardagi o'rini yaxshilanishiga xizmat qilgan. Natijada investorlar tomonidan mamlakatga transport-logistika arxitekturasi yanada rivojlanishida va jozibadorligi ijobiy baholangan holda iqtisodiyotga jalb qilingan zamonaviy texnologiyalar natijasi o'z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Jami tadqiqot natijalari bo'yicha ishi mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy maqola, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola chop etildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'jekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida transport-logistika tizimi rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida global transport indekslarning tranzit oqimi jozibadorligiga ta'sirining nazariy asoslari, xalqaro indekslarning baholash metodologiyalari hamda mamlakatning transport infratuzilmasi jozibadorligini namoyon etuvchi xalqaro reyting indekslardagi ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan.

Mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning xalqaro iqtisodiy indekslarning logistika sohasida transformatsiyalashuv jarayonlari iqtisodiyotga ta'siri xususidagi ilmiy-nazariy fikrlarini qiyosiy tahlil qilish natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

xizmat ko'rsatish sektorining bir qismi bo'lgan logistika kompaniyalar tomonidan safarbar etiladigan kapital qo'yilmalarni ular yo'naltirilgan hududda kuzatilishi mumkin bo'lgan risklar hamda ushbu mablag'lardan kutilayotgan samara darajasini oldindan ifodalaydigan omillar yig'indisi deb baholanadi;

Logistika samaradorligi indeksi (LSI) jozibadorlikka ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro indekslarning baholash metodologiyalarini tadqiq qilish natijasida qator olimlar xulosalari, turli xalqaro reyting va indekslarning metodologiyalarini o'rganish natijasida quyidagilar aniqlandi<sup>5</sup>:

Logistika samaradorligi indeksi mahsuldorlikning 6 ta asosiy drayveri yoki “ustunlar”idan tashkil topgan. LSIning umumiy baholash bali 5 ni tashkil etadi va 139 ta mamlakatlar ishtirokida pozitsiyalararo so'rovnoma orqali aniqlanadi. So'rovnoma noyob va global tadqiqot bo'lib, har yili 100 dan ziyod hamkor institutlar yordamida 1500 ta biznes rahbarlari o'rtasida o'tkaziladi;

iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq strategik rejalarni ishlab chiqish va mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini oshirish hamda uni baholash bevosita xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari tomonidan yuritiladigan xalqaro iqtisodiy indekslarga bog'liqdir;

indeks va reyting atamalari bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, mamlakatning multimodal investitsiyaviy jozibadorligi nuqtai nazaridan, indeks bu – unda ishtirok etuvchi mamlakatlar jamlanmasida har bir mamlakat bo'yicha transport infratuzilmasi muhitiga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflovchi indikatorlarning mavjud holatiga ko'ra, ko'rsatkichlarining ro'yxati yoki registri bo'lsa, ushbu holatda reyting

---

<sup>5</sup> Martí, L., Puertas, R., & García, L. (2014). The importance of the Logistics Performance Index in international trade. *Applied economics*, 46(24), 2982-2992. / Beysenbaev, R., & Dus, Y. (2020). Proposals for improving the logistics performance index. *The Asian Journal of Shipping and Logistics*, 36(1), 34-42.

mazkur ro'yxat yoki registrning dolzarbligi va ahamiyatiga ko'ra baho berish orqali tartibli qilib tuzilgan shaklidir;

mamlakatning xalqaro koridorlarda ishtiroki ko'lami kengaysa hamda ulardagi ko'rsatkichlari va o'rni qanchalik yaxshilansa, ushbu mamlakatda davlat tomonidan ham xususiy sektor tomonidan ham jalb qilinadigan xorijiy sarmoyalar logistik xizmatlarning takomillashiga va mijozga yo'nalganlik darajasi yengillashiga erishiladi<sup>6</sup>.

### 1-jadval

#### Raqamli logistika komponentlari uchun mamlakatlarning transformatsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirish va uning infratuzilmasi jozibadorligini namoyon etadigan xalqaro reyting va indekslar<sup>7</sup>

№	Xalqaro reyting va indekslar	Reytingni tuzuvchi tashkilotlar	Baholanadigan parametrlar
1	Logistika samaradorligi indeksi (LPI)	Jahon banki	Mamlakatlarning savdo logistika bo'yicha faoliyati indikatorlari
2	Rail Usage temir yo'ldan foydalanish indeksi	Rail Usage global boshqaruv konsalting kompaniyasi	Temir yo'llardan foydalanish: yuk va yo'lovchi harakat tarkibiga ta'sir qiluvchi omillar asosida mamlakatning kelgusi davrda rivojlanish imkoniyatlari
3	Rail Transport Network Size xalqaro reytingi	BMTning statistika bo'limi (DESA)	Mamlakatlarning transport infratuzilmasining joriy holatini aks ettiruvchi indikatorlari
4	Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi	BMTning sanoatni rivojlantirish instituti (UNIDO)	Mamlakatlarning raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishi va eksport qilish imkoniyatlari
5	Biznesni yuritish indeksi	Jahon banki (World Bank Group)	Biznesni yuritish uchun huquqiy muhit

1-jadval ma'lumotlarida aks etgan xalqaro reyting va indekslar jahonning ko'plab mamlakatlaridagi mavjud transport logistika tizimining har hisobot yilidagi indikatorlari turli xil omillar asosida shakllanadigan mezonlar yordamida tahlil qilib boradi va o'rganadi.

Rail Usage Jahon raqobatbardoshlik reytingini hisoblashda miqdoriy va sifat masalalarni alohida o'lchash uchun har xil turdagi ma'lumotlardan foydalaniladi. WRUda statistik ma'lumotlar qattiq ma'lumotlar deb nomlanib, ular umumiy reytingning 2/3 qismini tashkil etadi. Qolgan mezonlar har yili o'tkaziladigan ijrochilar fikri bo'yicha so'rovnomalardan iborat bo'lib, umumiy reyting 1/3 qismini hisoblash uchun ishlatiladi. Qattiq ma'lumotlar raqobatbardoshlikning ma'lum bir vaqt ichida qanday o'lchanganligini ko'rsatsa, so'rov ma'lumotlari bozor ishtirokchilari tomonidan qabul qilingandek raqobatbardoshlikni o'lchaydi. Qolaversa, so'rov osonlikcha

<sup>6</sup> Junge, A. L., Verhoeven, P., Reipert, J., & Mansfeld, M. (2019). Pathway of digital transformation in logistics: best practice concepts and future developments (Vol. 8). Universitätsverlag der TU Berlin.; Балдин К.В., Быстров О.Ф., Передеряев И.И., Соколов М.М. Инвестиции: Системный анализ и управление / Под ред. Проф. К.В. Балдина. – 2-е изд. – М.:Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007.–16 с.; Кузнецова С.В., Смирнова О.А. Анализ подходов к оценке инвестиционной привлекательности региона. «Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение». №1 (45) 2016.;

<sup>5</sup> Мустафакулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-услубий масалалари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.: 2017. – 46 б.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan rasmiy manba ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

o‘lchanmaydigan masalalarni (masalan, boshqaruv amaliyoti, transport tizimi, logistik xizmatlar va h.k.) miqdoriy baholash uchun ishlab chiqilgan;

Global ta‘minot zanjiri forumi global ta‘minot zanjiri boshqaruvi oldida turgan muammolar va imkoniyatlarni muhokama qilish va hal qilish uchun butun dunyo bo‘ylab sanoat rahbarlari, siyosatchilar va mutaxassislarni birlashtiradi. Tadbir ochilishida ishtirok etish bilan bir qatorda, UNIDO xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan tashkil etilgan sessiyada ham ishtirok etib, ta‘minot zanjirlarida, xususan transport sohasida munosib ish olib borish uchun mas‘uliyatli biznes yuritishni rivojlantirishga e‘tibor qaratildi.

## 2-jadval

### Singapur davlatining 2007-2023 yillardagi xalqaro maydonda logistika ko‘rsatkichlari<sup>8</sup>

Ko‘rsatkichlar nomi	2007	2010	2012	2014	2016	2018	2023
Logistics Performance Index (LPI)	4.19	4.09	4.13	4.0	4.14	4.0	4.30
Customs	3.90	4.02	4.10	4.01	4.18	3.89	4.20
Infrastructure	4.27	4.22	4.15	4.28	4.20	4.06	4.60
International shipments	4.04	3.86	3.99	3.70	3.96	3.58	4.0
Logistics competence	4.21	4.12	4.07	3.97	4.09	4.10	4.40
Tracking & tracing	4.25	4.15	4.07	3.90	4.05	4.08	4.40
Timeliness	4.53	4.23	4.39	4.25	4.40	4.32	4.30
GDP (mlrd. AQSh dol)	180.9	239.8	295.1	314.9	319	376.9	673.3

2-jadval ma‘lumotlarida Singapur davlatining logistika samaradorligi indeksi, jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari hamda xalqaro iqtisodiy indekslardagi ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

Xalqaro indeksning baholash metodologiyalariga ko‘ra siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ekologik tizim, infratuzilma, ishlab chiqarish, ishchi kuchi, innovatsiya, resurs va xom ashyo, korrupsiya, biznes samaradorligi kabi indikatorlar transport-logistika tizimida jozibadorlikni baholashda eng ko‘p ishlatiladigan ko‘rsatkichlar sifatida aniqlandi. Shunday ekan, yuqorida nomlari keltirilgan indikatorlar majmui va ular tarkibiga kiruvchi mezonlar orqali dunyo mamlakatlarining transport-logistika sektori jozibadorlik holati aniqlanadi va baholanadi.

Dissertatsiyada mamlakatning xizmatlar sohasidagi logistik kompaniyalar jozibadorligini namoyon etuvchi xalqaro iqtisodiy indekslardagi ko‘rsatkichlariga ta‘sir qiluvchi omillar tarkibini ikki guruh, ya‘ni boshqaruv va tartibga solish bilan bog‘liq hamda bozor segmentlari va infratuzilma bilan bog‘liq omillarga bo‘lib o‘rganildi. Ularning har biri tizim rahbarlari tomonidan maqsadli va strategik qarorlar qabul qilishiga ta‘sir etishi o‘rganildi va tegishli xulosalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda logistika sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini tashkil etish amaliyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida rivojlangan davlatlar tajribasida iqtisodiy o‘sish va transport infratuzilmasini jozibadorlikka xalqaro reyting indekslardagi ko‘rsatkichlarning ta‘siri va MDH davlatlarining logistika


<sup>8</sup> Muallif tomonidan internet ma‘lumotlari asosida mustaqil tayyorlandi. WorldBank LPI indicators

samaradorligi indeksida ishtirokini ta'minlashning bugungi holatiga baho berilgan va mavjud tendensiyalar aniqlangan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida iqtisodiy o'sish va multimodal transport tizimlarining raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini xalqaro reyting indekslardagi ko'rsatkichlarning ta'sirini o'rganish maqsadida Jahon bankining (World Bank) xalqaro reytingining 2023 yilgi hisobotidan foydalanib arifmetik progressiya bo'yicha tanlama asosida (reytingda mos ravishda 1, 61, 79 va 97-o'rinlardagi) xorijiy davlatlar, xususan Singapur, Indoneziya, Qozog'iston va Tojikiston tanlab olindi va tahlil qilindi.

Ushbu davlatning xalqaro iqtisodiy indekslardagi o'rni doimo yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek mamlakatning Jahon bankining LPI reytingi bo'yicha 2007-2023 yillardagi ko'rsatkichlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 2007 yildagi 1-o'rindan 2010 yilda 2-o'ringa tushgan bir paytda jarayonni o'z vaqtida bajarish va xalqaro yuk tashish hajmi mos davrlarda 4,53 balldan 4,23 ballga kamaygan bo'lsa, 2018 yildagi 7-o'rindan 2023 yilda 1-o'ringa ko'tarilgan davrda ko'rsatkichlar hajmi esa 3,58 balldan 4,0 ballga oshgan. Shunga o'xshash holatni Logistika samaradorligi ko'rsatkichlaridagi raqamlar dinamikasida ham kuzatish mumkin.

Demak, yuqorida qayd etilgan ikkita xalqaro iqtisodiy indekslar bo'yicha Singapur davlatining ko'rsatkichlari mazkur davlatdagi transport logistika sohasida jalb qilingan investitsiyalar hajmiga to'g'ri proporsional ravishda ta'sir ko'rsatadi degan xulosa qilish mumkin.



**1-rasm. 2007-2023 yillarda Singapur davlatining YaIM hajmi va LPI mezonlarning YaIMga nisbati<sup>9</sup>**

1-rasm ma'lumotlarida Singapur davlatining 2007-2023 yillardagi YaIM hajmi va mamlakatdagi logistik ko'rsatkichlarning YaIMga nisbatan foizdagi ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, ushbu davlatda LPI ko'rsatkichlari hajmining mamlakat YaIMga nisbati o'rtacha 4,10-4,13 darajani tashkil etmoqda. 2023 yilda esa mazkur ko'rsatkich 4,30 darajagacha ko'tarilganini ko'rish mumkin. Taqqoslash uchun, u odatda dunyo

<sup>9</sup> Jahon bankining internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo'yicha yalpi ichki mahsulot bilan o'lchanadigan iqtisodiyot hajmining 2-3 foizini tashkil qilsa, 2023 yilda esa dunyo bo'yicha ushbu nisbatning o'rtacha ko'rsatkichi 1,95 foizni tashkil etgan<sup>10</sup>. Ekspertlar fikricha, agar mamlakat har yili yalpi ichki mahsulotning 5-6 foizidan oshadigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qiladigan bo'lsa, bu mamlakat uchun katta muvaffaqiyat hisoblanadi.

Navbatdagi jadvalda tadqiqot ob'ektlaridan biri sifatidagi O'zbekistonning 2007-2023 yillardagi tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlari keltirilgan.

### 3-jadval

#### Transport logistikasi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilishda yillar kesimidagi qiyosiy tahlili (2019-2023)<sup>11</sup>

№	Tadbir nomi	O'lchov birligi	2019 y.	2023 y.	Farqi
1	Inson kapitaliga investitsiya	ming nafar	5.7	19.1	<b>335,1%</b>
2	Tranzit salohiyati	mln. tn. brutto	15237,4	27891,1	<b>+12653,7</b>
3	Yetkazish vaqti chegarasi mahalliy (o'rtacha)	kun	18	7	<b>257,1%</b>
4	Marketing qamrovi	foiz, %	30	70	<b>+40</b>
5	Identifikatsion dasturlar	ta	10-15	30-45	<b>+20</b>
6	Bulutli texnologiyalar	foiz, %	20%	50%	<b>+30%</b>
7	Logistik kompaniyalar soni (mahalliy)	ta	143	287	<b>+144</b>
8	Xalqaro yuk tashuvchi korxonalar soni	ta	994	1948	<b>+954</b>

3-jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston davlatining keltirilgan raqamlashtirishdagi o'rni yillar kesimida sezilarli darajada o'zgargani va samaradorlik nuqtalari yanada rivojlangani ko'rinadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti dunyodagi barqaror va raqobatbardosh milliy iqtisodiyotlardan biri bo'lishga turtki bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanganligi uning eksportga yo'naltirilganligi bilan ham izohlanadi. Lekin axborot texnologiyalari va logistika kabi ilm talab qiladigan tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ulushi ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bunga sabab, mamlakatda zamonaviy infratuzilma, mukammal ichki va tashqi aloqa hamda yuqori malakali ishchi kuchini etarli darajada shakllanganligidir.


XXI asrning oxirgi bir necha o'n yillari davomida O'zbekiston qashshoq agrar mamlakatdan eng boy va eng rivojlanayotgan sanoat kuchlariga aylanishida ichki bozor salohiyatining kichikligi yirik milliy kompaniyalari faoliyatlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun eksportga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu vaziyatdagi erta globallashuv milliy kompaniyalarga xalqaro raqobatda ustunlik berdi. Natijada, O'zbekiston aholi soniga mutanosib ravishda yirik transmilliy kompaniyalar va BYD,

<sup>10</sup> <https://ipi.worldbank.org/international/global>

<sup>11</sup> Muallif tomonidan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

KIA, Renault, Coca-Cola, UzAuto, Wolkswagen hamda Haval kabi taniqli brendlar soni bo'yicha juda yuqori ko'rsatkichlarga erishdi.

Yuqoridagi kabi vaziyatlarda samarali iqtisodiy siyosat yuritish asosida amalga oshirilgan islohotlar hisobiga O'zbekiston bugungi kunda diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'ldi.



**2-rasm. 2007-2023 yillarda O'zbekistonning YaIM hajmi va LPIlarning YaIMga nisbati<sup>12</sup>**


2-rasmda O'zbekiston davlatining 2007-2023 yillardagi YaIM hajmi va to'g'ridan-to'g'ri LPI indikatorlarining YaIMga nisbatan ulushi keltirilgan. Agar ushbu ko'rsatkichlarni o'zaro tahlil qiladigan bo'lsak, ko'rinib turganidek ushbu davrda LPI ko'rsatkichlari hajmining YaIMga nisbatan ulushining eng yuqori holati 2023 yilda bo'lib, u 3 foizni tashkil qilgan, eng past ko'rsatkich minus bir foiz bo'lib u 2016 yilda qayd etilgan. Agar ushbu davrdagi LPIlarning YaIMga nisbatan ulushini o'rtachasini hisoblaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 1,4 foizdan iborat.

Agar dunyo bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2-3 foizni, ekspertlar fikricha esa 5-6 foizni ta'minlash iqtisodiyot uchun juda yaxshi holat bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, hukumat tomonidan LPI indikatorlarini oshirish borasida kamida 2-3 foiz atrofidagi barqaror ko'rsatkichni saqlash choralari ko'rish maqsadga muvofiq. Chunki, rasmdagi YaIM va LPIning YaIMdagi ulushini izohlovchi grafik chiziqlariga nazar solinsa, LPIning YaIMdagi ulushining YaIM hajmiga to'g'ri proporsional ta'sir etishini kuzatish mumkin. Demak, LPIning barqaror ko'rsatkichlarda jalb qilinishi mamlakat YaIM hajmini ham barqarorligini ta'minlovchi omillardan biridir.

Tadqiqot doirasida tahlilimiz tarkibida MDH davlatlari tajribasini o'rganildi va tahlil qilindi. Qo'qon logistika markazi faoliyatiga Jahon banki tomonidan malakarlararo tartibga solinuvchi 6 ta mezonga tayangan yillik sarhisob natijalarini qiyosiy tahlil qilindi. Bundan tashqari tadqiqot doirasida "Qo'qon logistika markazi" faoliyatiga tegishli amaliyotlar muhokama qilindi. Jumladan, yuk yoki tovar aylanmasida vaqt resurslarini tejash maqsadida raqamli platforma orqali yuk

<sup>12</sup> Jahon bankining internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

buyurtmasining simulatsion amaliyoti bajarildi. Natijada jarayonning keskin boshqa tus olgani ayon bo'ldi. Amaliyotning birlamchi sxematik algoritmi quyidagicha:



**3-rasm. Transport sektorining raqamli transformatsiyasi<sup>13</sup>**

Ushbu yo‘nalishlar transport tizimida o‘z natijasi va samarasini ko‘rsatadigan, bundan tashqari, inson omiliga tegishli xatarlarni kamaytirishga yetaklaydi.

- 1) Infratuzilmani zamonaviy aloqa tizimlari bilan bog‘lash;
- 2) Harakatlanuvchi tarkibga raqamlashgan boshqaruv tizimini joriy qilish;
- 3) Mijozlar bilan ishlashda raqamli platformalardan foydalanish.

Xorij mamlakatlarining tajribasiga ko‘ra, forsayt texnologiyasining qo‘llanilishini yirik kompaniyalar misolida ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda forsayt texnologiyasi tobora keng tarqalgan va xilma-xil bo‘lib, biz bilgan klassik prognozdan katta farq qiladi. Texnologiya ijtimoiy muhandislik va boshqaruv texnologiyasi formatiga yanada chuqur kirib bormoqda. Ushbu turli xil forsaytni amalga oshirish amaliyotidan dastlabki xulosalar va saboqlarni allaqachon shakllantirish mumkin. Shu munosabat bilan, agar prognoz amalga oshirilsa, ushbu forsaytni amalga oshirishga chaqirilgan jamiyatning rivojlanishi to‘g‘risida amalga oshiriladi. Masalan, agar IT-sohani forsayt qilish amalga oshirilsa, unda ba‘zi bir ko‘r-ko‘rona nomsiz kuchlar va jarayonlarni emas, balki IT-hamjamiyatni rivojlantirish tendensiyalari va ssenariylarini yaratish kerak. Agar forsaytlash doirasida olib borilgan ishlar natijasida bunday o‘z-o‘zini navigatsiya qilish xaritasi tuzilmagan bo‘lsa, forsaytda ko‘rsatilgan raqamlar va nishonlar mutlaqo hech narsani anglatmaydi.


<sup>13</sup> Muallif tomonidan internet ma‘lumotlari asosida shakllantirildi.

Aynan temir yo‘l tizimida xorij kompaniyalarining xalqaro reyting ko‘rsatkichi, strategik yondashuvlari va daromadini tahlil qilish jarayonlari quyidagilarni ifodalaydi.

Transport tizimidagi xorijiy kompaniyalar yuk va yo‘lovchi tashish salohiyatining yuksakligi va davlat sherikchiligining ulushi sezilarli darajada kamligi natijasida muayyan bir malakat temir yo‘l tizimida ikki va undan ortiq aksiyadorlik kompaniyalari xizmat ko‘rsatishining samarasi davlat iqtisodiyotining yirik ko‘rsatkichlarini muntazam o‘shirishiga o‘z xissasini qo‘shib keladi. Qolaversa, yillar kesimida davriy tahlillar bizga logistika faoliyatida qaysi xizmat turlariga asosiy urg‘uni berish yuzasidan kerakli xulosalar chiqarishga ko‘mak berdi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda logistika sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida xodimlar va mijozlarning sodiqligi, harajatlarni kamaytirish, biznes ekotizimini amaliyotda qo‘llash va yaxshilash, uning samaradorligini oshirish va doimiy hisobotlarni taqdim etadigan kompaniyalar faoliyati o‘rtasidagi indikatorlar orqali kompaniya reytinglari va raqobatbardosh ustunlikni yaratishdan iborat.

Logistika sohasidagi innovatsiyalar boshidan baholanganda, u boshqa tadqiqot mavzusi bo‘ladi. Biroq, ushbu tadqiqot logistika raqamlashishida tajribaga ega bo‘lgan innovatsiyalarga va ushbu yangiliklarni yetkazib berish shartlariga qanday ta‘sir qilishiga baholay oladigan mexanizmga qaratildi. Ushbu innovatsiyalar kelajakdagi ishlanmalarga qanday ta‘sir qilishiga oid omillar ham tadqiqotga qo‘shiladi. Logistika 4.0 va texnologiyadagi tendensiyalar so‘nggi paytlarda logistikadagi sezilarli o‘zgarishlarning manbalari bo‘lib, ular tabiiy ravishda ushbu tadqiqotda bo‘ladi.




**4-rasm. Transport logistika raqamli ekotizimining tuzilmaviy funksional modeli<sup>14</sup>.**

<sup>14</sup> Rasmiy ma'lumotlarga tayanga holda muallif ishlanmasi.

Keltirilgan model tizimni aksariyat hollarda intensiv jarayonlarni boshqarishda yuzaga keladigan muammo, kamchilik yoki kechikishlarga qaratilgan mexanizm sifatida va ularni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan.

Xorijiy temir yo‘l kompaniyalari xali hanuz o‘z kelajagiga katta miqdorda investitsiya jalb qilib kelmoqda. Bu esa tizimining barcha tuzilmaviy yo‘nalishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, inson kapitali, moddiy texnik bazasi, ijtimoiy masalalar va moliyaviy holati kabi sektorlari e‘tibor markazida (4-rasm).

Logistika 4.0 ning asosiy e‘tibori ta‘minot zanjirini bashoratli boshqarish kabi yangi va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Yetkazib berishning ishonchliligi, sifati, moslashuvchanligi, qobiliyatlari va xizmat ko‘rsatish darajasi kabi ishlash mezonlari ushbu yangi va innovatsion texnologiyalar yordamida optimallashtirilishi mumkin. Logistika 4.0 uchun maqsadli ishlash mezonlariga erishish uchun logistika jarayonlarida axborot va materiallar oqimini rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va tuzatish kerak.



**5-rasm. Qo‘qon logistika markazida LPI bo‘yicha yuk tashish va logistik xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari (2020-2023)<sup>15</sup>**

Keltirilgan tahlillardan ham ayon bo‘lmoqdaki, Jahon bankining mazkur hisobotidagi baholash mezonlari 5 ballik tizimda tartibga solinadi. Shu sabab tadqiqot ob‘yektidagi tegishli indikatorlarni quyidagicha ifoda etish mumkin. 2023 yilda xizmatlar sohasida Qo‘qon logistika markazi o‘tgan yillarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatgan. Chunki tashuvlar soni ortgani, mijozlar bilan ishlashning yangicha yondashuvi joriy qilingani o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Umumiy olib qaraganda, Qo‘qon logistika markazining yillar kesimidagi faoliyati respublikaning sharqiy qismida, ya‘ni yuklarning aksariyati meva va poliz ekin mahsulotlari hamda qurilish materiallari tashishga ehtiyoj mavjudligini bildiradi. Qisman o‘zgarishsiz o‘sish natijalari vaqtida yetkazish parametri 2020-2022 yillarda kuzatilmoqda. Buning sababi, pandemiya davrida markaz ichki bozorning yangi segmentlariga moslashish davrini boshdan

<sup>15</sup> Rasmiy manba ma‘lumotlariga tayangan holda muallif ishlanmasi.

kechirdi. Qolgan kelgusidagi yillarda bashoratli raqamlar ijobiy kuzatilgan, shuningdek markaz tranzit salohiyati keskin ko‘tarilish tendensiyasiga ega. Agarda yuqoridagi mezonlarning to‘rt yillik miqdorini olsak, u holda bojxona – 2,62 ball, infratuzilma – 2,47 ball, xalqaro yuk tashish – 2,72 ball, xizmatlar – 3,0, kuzatish – 2,75 ball, vaqtida yetkazish – 2,62 balldan tashkil topdi (5-rasm).

Yuqori ko‘rsatkich xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkich 3,0 miqdorda ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Albatta xizmatlar sohasi logistika 4.0 bilan sanoatdagi texnologiyalarni uzviy bog‘laydigan ko‘prik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, katta ma‘lumotlar tahlili, avtonom robotlar (avtomatlashtirish), simulyatsiyalar (raqamli olamlar), gorizont-al-vertikal tizim integratsiyasi, buyumlar interneti, kibexavfsizlik, bulutli hisoblash, qo‘shimcha ishlab chiqarish va kengaytirilgan haqiqat kabi omillarning ta‘siri bilan sanoat - sanoat 4.0 ga o‘zgarish imkoniyati mavjud.

Logistika va ishlab chiqarish ta‘minot tarmoqlarini rivojlantirish orqali temir yo‘llar iqtisodiy diversifikatsiyani rivojlantirish uchun juda muhimdir. Temir yo‘llardan samarali foydalanish, shuningdek, mamlakatlarga iqlim o‘zgarishi bo‘yicha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yordam berishi mumkin. Chunki ular iqtisodiy jihatdan samarali transport turi hisoblanadi (tonna/km yoki yo‘lovchi/km). Shuningdek, temir yo‘llar uzoq muddatli va iqtisodiy jihatdan foydali istiqbolga ega: temir yo‘l transporti orqali ayrim turdagi tovarlarning harakati - ayniqsa, xavfli, yonuvchan va og‘ir yuklar - uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan yo‘nalishlarda tejamkor bo‘ladi. Bundan tashqari ta‘minot zanjirini zamonaviy tusda ta‘minlash uchun moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hamda mijozlar bilan ishlashda xizmatlar sektorini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlari bizga, multimodal aloqalarni yaxshilash uchun temir yo‘l transportining markazlashganini tan olgan holda, “Transport va savdoga ko‘maklashish 2030” strategiyasiga muvofiq mamlakatning 2030-yilga qadar ko‘rsatkichlarini prognoz qilindi. Bundan tashqari temir yo‘l orqali tashilgan yuklar ko‘lami va uzluksiz harakatlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida maxsus temir yo‘l yo‘laklari (koridor) konsepsiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Transport va ta‘minot kabi logistika faoliyati jahon savdosi tarixida bir nechta o‘zgarishlarga duch kelgan. Barcha quyi tizimlarga sanoat inqiloblari, yangi texnologiyalarga o‘tish konsepsiyalari va biznes xizmatlari kabi voqealar ta‘sir qiladi. Logistika 4.0 - bu Sanoat 4.0 paradigmasi ta‘sir qiladigan sohalardan biridir.

